

MUNDARIJA

07.00.00 - TARIX 7

Amonkeldi Axmatov. O'zbekiston ssr yozuvchilar uyushmasining mustaqillik arafasidagi faoliyati (Buxoro bo'limi misolida)	7
Yuldashev Javoxir Abduraxim o'g'li. Bo'lajak tarix o'qituvchilarida aksiologik pozitsiyani rivojlantirishning pedagogik asoslari	11
Jo'rayev Isomiddin Ismoilovich. 1950-yillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda davlat siyosatining mohiyati.....	14

13.00.00 - PEDAGOGIKA FANLARI 18

Rustam G'aniyevich Jumayev. Integrativ yondashuv asosida talabalarda fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishning samaradorlik darajasi	18
Mirali Muhammadjonovoch Hamroyev. Oliy ta'limda nazariya va amaliyot integratsiyasini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida	30
Rizayeva Gulnora Botirovna. Tarbiya texnologiyalari asosida yoshlarni ijtimoiy-huquqiy faolligini rivojlantirish.....	34
Aslonova Emma Sergeyevna. Maktabgacha ta'lim tashkilotiga tayyorlov mashg'ulotlarida ravon nutqni o'stirish pedagogik muammo sifatida	38
Feruza Muidinovna Nurutdinova. "Biokimyo" fanini innovatsion ta'lim muhitida o'qitish aspektlari (tibbiyot oliy o'quv yurtlari misolida)	44
Ahmadov Olimjon Shodmonovich. Turkiston jadidlarning ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirishdagi adabiy va publitsistik asarlarida pedagogik fikrlar	48
Хажиева Дилфуза Адамбаевна, Эгамбердиева Юлдуз Ниёзмат кизи. Принципы развития речи в работах республиканских и зарубежных учёных и педагогов	56
Abdullo Shodiyevich Inoyatov. Keksa yoshdagi kishilarning salomatligi muhim omillari	60
Abdusamatov Alisher Sobirovich. Matematika fanini o'zlashtirishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining semiotik yondashuvini shakllantirish	67
Baymuradov Radjab Sayfitdinovich, Nasimova Nozima Isomiddin qizi. Yakka tartibdagi ish –o'qituvchi faoliyatidagi muvaffaqiyat garovi.....	73
Shabon Muhammadovna Farmonova. Boshlang'ich sinflarda xalqaro baholashni amaliyotga tatbiq etishning ilg'or tajribalari.....	77
Jumayeva Gulnora Tursunpulatovna. Jamiyatning ma'naviy kamolotida muallim kasbiy madaniyatining xususiyatlari.....	80
Xujaniyozova Oygul Rajabovna. O'quvchilarni kreativ yondashuv asosida ijodiy mehnat faoliyatiga yo'naltirish samaradorligi bo'yicha tajriba-sinov ishlari	85
Рафикова Рената Анатольевна. Steam технологии как возможность раскрытия потенциала неуспевающих школьников	90
Davronov Dilshodbek Ismoilovich. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida badiiy matnga oid tushunchalarni mediata'lim asosida shakllantirish metodikasi	95
To'raboyeva Muqaddas Yoqubjanovna. Ona tili darslarida nutqiy kompetensiyani shakllantirishning mazmun va mohiyati	99
Doschanova Mohinur Maxsudovna. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida mediasavodxonlik bo'yicha kreativ fikrlashini rivojlantirish metodikasi	103
Salohiddinova Lobar Qahramon qizi. "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsliklarida adabiy ertak	107
Avezova Baxtigul Xolmurotovna. Boshlang'ich maktab o'quvchilarining o'quv faoliyatida o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantirish muammosi.....	111

Amonkeldi Axmatov
Buxoro davlat universiteti jahon
tarixi kafedrası dotsenti,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: amon.axmatov@mail.ru

**O'ZBEKISTON SSR YOZUVCHILAR UYUSHMASINING MUSTAQILLIK
ARAFASIDAGI FAOLIYATI (BUXORO BO'LIMI MISOLIDA)**

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston tarixining murakkab va ziddiyatli bo'lgan XX asr 80-yillari oxiridagi adabiy jarayonlari, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Buxoro bo'limining faoliyati, tadrijiy o'zgarishlar haqida tahliliy-tadqiqiy fikrlari xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: yozuvchilar uyushmasi, adabiy muhit, Buxoro adabiy jarayonlari, Toshpo'lat Ahmedov, Amonkeldi Axmatov, yozuvchi, shoir.

**ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ОБЪЕДИНЕНИЯ ПИСАТЕЛЕЙ УЗБЕКИСТАНСКОЙ ССР
НАКАНУНЕ НЕЗАВИСИМОСТИ
(НА ПРИМЕРЕ БУХАРСКОГО ОТДЕЛЕНИЯ)**

Аннотация. В данной статье анализируются и исследуются сложные и противоречивые в истории Узбекистана литературные процессы конца 80-х годов 20 века, а также исследуются деятельность Бухарского отделения Союза писателей Узбекистана, а также постепенные изменения.

Ключевые слова: Союз писателей, литературная среда, Бухара, литературные процессы, Ташполат Ахмедов, Амонкелди Ахматов, писатель, поэт.

**ACTIVITIES OF THE ASSOCIATION OF WRITERS OF THE UZBEKISTAN SSR ON
THE EVE OF INDEPENDENCE
(USING THE EXAMPLE OF THE BUKHARA BRANCH)**

Abstract. This article analyzes and explores the complex and contradictory literary processes in the history of Uzbekistan in the late 80s of the 20th century, and also examines the activities of the Bukhara branch of the Writers' Union of Uzbekistan, as well as gradual changes.

Key words: Writers' Union, literary environment, Bukhara, literary processes, Tashpolat Akhmedov, Amonkeldi Akhmatov, writer, poet.

Kirish. Yozuvchilar uyushmasi tarixini o'rganish jarayonida ayon bo'ldiki, tashkilot tez-tez yig'ilsh qilib turgan. Siyosiy jarayonlarga ham o'z munosabatini bildirib borgan. Siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisi bo'lgan. Yozuvchilar uyushmasi o'z qarorlarini kengash muhokamasi qarori asosida kotib tasdig'i bilan taqdim qilgan. Umuman olganda, qayta qurish siyosati barcha soha singari adabiy madaniy jarayonlarga ham keskin ta'sirini ko'rsatdi. Adabiy jarayonlar, shu jumladan, yozuvchilar uyushmasida ham turli tartibsizliklar ko'zga tashlana boshladi. Madaniy jarayonda ikki xil holat yuzaga keldi ijobiy va salbiy holat deb baholab sharhlab berish maqsad qilindi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Tanlangan mavzuni o'rganishda qator tarixiy adabiyotlar va keyingi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlar doirasidagi ma'lumotlar atroflicha

- 8 o'rganilgan. Ushbu mavzu doirasida tarixchi A.Axmatov ayrim tadqiqotlar olib borgan. Shuningdek, adabiyotshunoslar tomonidan ayrim maqolalar e'lon qilinib borilmoqda.

Mavzuni yoritishda diskurs tahlil, davriy-xronologik izchillik, komparativ yondashuv kabi metodlardan foydalanilgan.

Natijalar va muhokama. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi birinchi kotibi Odil Yoqubov 1987-yil 31-dekabrda rasmiy xat bilan uyushmaning viloyatlardagi bo'limlariga murojaat qiladi. Jumladan, Buxoro viloyat bo'limiga yuborilgan maktubda bo'limning tarkibiy tuzilishi masalasida so'z boradi. Shuningdek, xatda uyushma nizomiga qat'iy amal qilish masalasi ham eslatilgan: "Sizga 1988-yil uchun xodimlar ro'yxatini yuboramiz. 1988-yil 10-yanvargacha bo'limingiz tarkibini qat'iy muvofiqlashtirishni taklif qilaman" [1; 126]. Ushbu o'rinda xodimlar ro'yxati bilan uyushma a'zolarini chalg'itib yubormaslik lozim. Boisi, xodimlar deganda, avvalo, viloyat bo'limi kotibi, so'ngra adabiy maslahatchi (adabiy maslahatchi bo'lim ko'lamiga va adabiy jarayonlardagi ishtirokchilar soniga qarab 1,2, 3 tagacha bo'lishi mumkin). Turli tilda so'zlashuvchilarni inobatga olib rus yoki tojik, shuningdek, hududdagi muayyan aholi ko'p mulqot qiladigan tildan kelib chiqib adabiy maslahatchi sh'tati ajratiladi. Bunga misol tariqasida Markaziy davlat arxividagi ma'lumotlarni keltirish kifoya [2; 227].

Adabiy maslahatchining vazifasi juda mas'uliyatli bo'lib, yosh, havaskorlardan kelgan maktublarga javob yozishi, to'g'ridan-to'g'ri bo'limga murojaat bilan kelgan ijodkorlarga yo'l-yo'riq berishi kerak bo'ladi. Yosh, havaskor ijodkorlarning keyingi faoliyati ko'p jihatdan adabiy maslahatchilarning o'z vazifasini mukammal bajarishiga bog'liq. Ijodkorlardan kelgan maktublarga javob yozish bilan birga Yozuvchilar uyushmasidan kelgan xatlarga ham kotib bilan birgalikda javob tayyorlashda ishtirok qilgan. Adabiy maslahatchining bir yillik faoliyati hisobot va statistika ko'rinishida Markaziy uyushmaga yil oxirida yuborilgan. Yozuvchilar uyushmasi shu hisobotlar va boshqa murojaat orqali, shuningdek, o'z vakilini viloyatga yuborib jarayonni kuzatish orqali bo'limning bir yillik faoliyatiga baho bergan. Yil boshida tuzilgan reja va dasturlarni qay darajada bajarilgani yuzasidan viloyat bo'limi kotibi yillik hisobot bergan. O'zbekiston SSR Yozuvchilar uyushmasi yillik yig'ilishlarida kengash a'zosi viloyat bo'limi kotiblari, adabiy maslahatchilar va taklif qilingan ijodkorlar ishtirok qilgan. Yig'ilish o'zbek va rus tillarida olib borilgan. Yig'ilish kotibi tomonidan stenogramma tayyorlab borilgan. Yig'ilishda hisobotlar bilan birgalikda turli masalalar ham muhokama qilingan.

Shunday yig'ilishlardan biri 1988-yil 15-fevralda tashkil qilinadi, ushbu kungi qarorda Buxoroda xalq eposi qahramonlari haykalini qurish taklifi beriladi. Biroq aynan qaysi xalq eposi, qaysi qahramon obrazi Buxoroning aynan qaysi o'rni va ne maqsadda o'rnatilishi haqidagi masalalar ochiq qoldirilgan. Balki ushbu qaror viloyat bo'limiga taklif sifatida berilgan bo'lib, viloyat hokimligi tomonidan tasdiqlanmagan bo'lishi mumkin. Milliy arxivning ushbu qaror keltirilgan hujjatdan keyingi bir nechta fond va ro'yxatlarni o'rganish jarayonida ushbu qaror mazmuniga mos boshqa dalillar topilmadi. 1988-yil 25-fevraldagi qarorning taqdiri biz uchun noma'lum bo'lib qoldi. Qarorning keyingi yillarda toki mustaqillikkacha Buxoro viloyatida birorta xalq eposi qahramoniga yodgorlik o'rnatilmaganini inobatga olsak, qaror tasdiqlanmaganligi, balki moliyaviy muammolar yuzaga kelgan bo'lishi mumkin degan qarorga kelish mumkin. Eng qizig'i yaqin orada SSSR qulashidan bexabar uyushma ushbu qaror ijrosini 2000-yilgacha qilib belgilagan [5;152]. Siyosiy jarayonlarning rivoji jahon xaritasida ko'plab mustaqil davlatlarni tashkil topishi ortidan bu singari ko'plab qarorlar ijrosiz qolib ketdi. Yozuvchilar uyushmasining 1989-yilda amalga oshirgan eng katta tashkiliy ishlaridan biri bu o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi masalasi bo'ldi.

1989-yil 29-iyunda Uyushmaning kengaytirilgan yig'inida Buxoro viloyatidan Toshpo'lat Ahmedov ishtirok qiladi. Ushbu yig'ilishda adiblar bir to'xtamga kela olmaydilar. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishiga norozilar, qarshilar ham ko'pchilikni tashkil qilar edi. Bundan tashqari, yig'ilishda kengash a'zolari va ishtirokchilar to'la tartibda ishtiroklari kuzatilmaydi. Yig'ilishdagi ushbu masala keyingi oyga qoldiriladi [4;12].

Muhokama xulosasini e'lon qilish 1989-yil 12-iyulga qoldiriladi. Ushbu jarayonlar haqida buxorolik adib Toshpo'lat Ahmedov xotirlar ekan: "Yig'ilishning ko'pchilik a'zolari davlat tili

maqomini berishi lozimligini ta'kidladilar, jumladan, buxoroliklar ham shu fikrda edi. Biroq, kengash a'zolari orasida ayrim noroziliklar bor edi. Kengash raisi yakuniy xulosani keyingi yig'ilishga qoldirgan edi" - deya xotirlaydi. [6; Toshpo'lat Ahmedov bilan suhbat. Buxoro, A.Fitrat ko'chasi. 14.01.2019].

Birgina adiblar faoliyatini o'rganish jarayonidan o'zbek tiliga davlat tili maqomi berish keyinchalik mustaqillikka erishish osonlikcha bo'lmagani anglashiladi. Tashqi qarshiliklar bilan birga ichki muhitdagi noroziliklar ham ijobiy o'zgarishga to'sqinlik qilib turgan.

1989-yilgi arxiv materiallari o'rganilganda Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limlarida kotiblari haqida ham ko'plab ma'lumot aniqlandi. Biroq ularning nomlari turli joylarda keltirilgan edi. Biz ma'lumotlarni o'rganish jarayonida 1989-yil Namangan viloyatiga X.Sa'dullayev, Sirdaryo viloyatiga X.Kisaqulov, Farg'ona viloyatida Y.Sulaymonov, Buxoroda T.Ahmedov, Qashqadaryo viloyatida M.Achilov, Samarqand viloyatida D.Abdurahmonov, Andijon viloyatida O.Abdurahmonov, Navoiy viloyatida X.Bobomurodov, Surxandaryo viloyatida Temirov bo'limga kotiblik qilgani aniqlandi.

Xarajatlarni qoplash uchun Buxoro bo'limi Yozuvchilar uyushmasiga xat bilan murojaat qiladigan bo'lsa, ma'lumotnoma taqdim qilinadi. Unda xarajatning sanasi va maqsadi aniq keltiriladi. Shu asosida xarajatlar uyushma jamg'armasi tomonidan to'lab beriladi. Masalan, 1989-yil 24-noyabrda yil hisobotlarini eshitish uchun Toshpo'lat Ahmedov Toshkent shahriga O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga chaqirtiriladi. O'zSSR Yozuvchilar uyushmasi buyrug'i asosida 23-24-noyabr kunlari 2 kun muddatga safar qiladi. Safar davomida keyingi yil rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash tavsiyalari beriladi.

Qayta qurish siyosatini ijobiy tomonlaridan biri (agar shunday deyish mumkin bo'lsa) Yozuvchilar uyushmasining moddiy texnik bazasi yaxshilana bordi. Sharoitlar juda yuqori darajada bo'lmaganda ilgari yillarga nisbatan ijobiy holatga kelgan. 1988-yil 7-iyuldagi O'zbekiston SSR Vakillar kengashining buyrug'iga asosan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi markaziy apparatiga 3 ta avtomashina ajratilgan. (Ma'lumot o'rnida aytish kerak, bundan oldin ham avtomobil mavjud edi.) Tashkilotga THO 13-45, THA 64-69, THB 12-77 raqamli avtomobillar rasmiylashtiriladi. Buxoro bo'limida esa birorta avtomobil yo'qligi inobatga olinib yengil avtomashina ajratib berish so'raladi [3;10]. Bu haqida kengashning qarori tasdiqlanadi. Doimiy targ'ibot va tashviqotda yuradigan adiblar uchun viloyatga albatta avtomobil zarurati mavjud edi.

Biroq, XX asr so'nggi yillaridagi adabiy holat yozuvchilar bo'limi o'rganilganda turli salbiy holatlar ayonlashadi. Markaziy uyushmada boshlangan tartibsizliklar viloyat bo'limlariga ham o'z ta'sirini o'tkazishi tabiiy edi. Sovet ittifoqi siyosiy jarayonlarda boshqaruv tizginini qo'ldan chiqara boshlagani sayin Yozuvchilar uyushmasi va uning Buxoro bo'limida ham toqatsizlik holatlari yuzaga kela boshlagan. Markaziy uyushmaning viloyatlarga ta'siri sezilarli pasaya boshladi. Xodimlarning ishga kelib ketish holatlari, kundalik faoliyat normalarini tartibga solish, yosh ijodkorlar va havaskorlar murojaatlariga o'z vaqtida tegishli javob berish masalasida o'zboshimchaliklar yuzaga kelgan. Ushbu holatlarni oldini olish uchun O'zbekiston SSR Yozuvchilar uyushmasi kotibi 1989-yil 5-dekabrda 25-sonli buyruqni imzolaydi. Unda bo'limlarda ichki tartib qoidalarga rioya qilish. Adiblarga uyushma va bo'limlardan uzoqlashib ketmasdan doimo aloqada bo'lib turish eslatiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, XX asr 80-yillarining so'nggi davrida va mustaqillik arafasida adabiy jarayonlarda qisman erkinlik yuzaga keladi. Partokratik hokimiyatga asoslangan sovet hukumatida partiya ta'sirining susayishi kuzatiladi. Bu esa, O'zbekiston SSRdagi siyosiy jarayonlarga ta'sir o'tkazadi. Siyosat bilan hamnafas yuradigan adabiy jarayonlarda ham boshboshdoqlik, tartibsizlik holatlari ko'zga tashlana boshlaydi. Markaziy uyushma ilgari tartib qoidalarni saqlab qolishga urunsada, shiddat bilan rivojlanib borayotgan o'zgarishlar oldida o'zgarish qiladi. Adabiy muhitda ham yangilanish davri boshlanganini qabul qilgan adiblar partiya hukmronligiga ostida qolishni istaganlariga qarshi bo'lib qoladilar. Hatto o'zbek tiliga davlat tili maqomi berish masalasida ham yaxlit fikrga kelaolmaganliklari buning yaqqol dalilidir. Ko'p

- 10 kuttirmasdan istiqlool shamolining yelishi Buxoro adabiy muhitida barcha tartib qoidalarini yangitdan ishlab chiqishni taqazo qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston milliy arxivi, P-2356 fond, 1- ro'yxat, 1508- ish.
2. O'zbekiston milliy arxivi, P-2356 fond, 1- ro'yxat, 1516- ish.
3. O'zbekiston milliy arxivi, P-2356 фонд, 1-рўйхат, 1522- ish.
4. O'zbekiston milliy arxivi P-2356 fond, 1- ro'yxat, 1518^b- ish.
5. O'zbekiston milliy arxivi, P-2356 fond, 1- ro'yxat, 1515- ish.
6. Axmatov.A. Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси Бухоро бўлими котиблари (архив материаллари асосида, биринчи мақола). Таълим ва инновatsion тадқиқотлар (2023 йил №7). –Б 20-24.
7. Axmatov.A. Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси Бухоро бўлими тарихи. Research on social and Humanitarian sciences Volume: 01. Issue:01/Jan-2023 Impact factor: 7.2 (2022) ISSN-L: 3595-3566 www.scirp.org
8. Akhmatov.A. History of Bukhara Literary Environment in 1950-1960 s. Middle European Scientific Bulletin <https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/index> [https://doi.org/ 10.47494/mesb.2021.16.748](https://doi.org/10.47494/mesb.2021.16.748)